



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



O'ZBEKISTON-MISR MUNOSABATLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TARIXI.

Qosimova E'tibor

GulDU Tarix yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston-Misr munosabatlari, o'zaro hamkorlikning turli yo'nalishlari, xususan, madaniy-gumanitar, ta'lim va iqtisodiy sohalaridagi aloqalar ko'rib chiqiladi. Savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va tovar ayirboshlash hajmini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni davom ettirish, yaqin yillarda tovar ayirboshlash hajmini bir necha barobar oshirish uchun foydalanilmagan keng imkoniyatlar mavjudligi tahlil qilinmoqda. Bundan tashqari, ushbu davlatlar o'rtasida hamkorlik amalga oshirilgan huquqiy bazaning bosqichlari tavsifi berilgan.

Kalit so'zlar. Misr Arab Respublikasi, iqtisodiyot, tarix, hamkorlik, sanoat, sarmoya

ИСТОРИЯ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ УЗБЕКСКО-ЕГИПЕТСКИХ ОТНОШЕНИЙ

Касимова Эътибор

Студентка исторического факультета ГулДУ

Аннотация. В данной статье изучены узбекско-египетские отношения, различные направления взаимодействия в частности в культурно-гуманитарной, образовательной, экономической. Анализировано, что необходимо продолжения усилий, направленных на расширение торговоэкономических связей и увеличение объема товарооборота, наличие широких неиспользуемых возможностей для наращивания торговли в несколько раз в ближайшие годы. Кроме того дается описание этапов договорно-правовых баз между этими государствами через которые осуществлялось сотрудничество.

Ключевые слова. Арабская республика Египет, экономика, история, сотрудничество, промышленность, инвестиции

HISTORY OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF UZBEK-EGYPTIAN RELATIONS

Kasimova Etibor

Student of historical faculty GulDU

Abstract. This article examines Uzbek-Egyptian relations, various areas of interaction, in particular in the cultural, humanitarian, educational, and economic fields. It is analyzed





that it is necessary to continue efforts aimed at expanding trade and economic ties and increasing the volume of trade turnover, the presence of broad unused opportunities for increasing trade several times in the coming years. In addition, a description is given of the stages of the contractual and legal frameworks between these states through which cooperation was carried out.

Keywords. *Arab Republic of Egypt, economy, history, cooperation, industry, investment.*

Kirish. Masofalar juda katta bo'lsa-da, O'zbekiston va Misrning munosabatlari uzoq asrlik boy tarixga ega. Movarounnahr va Xorazmning eng yirik olimlari Misrda tahsil olgan, yashagan va ijod qilganlar. Masalan, dunyoga mashhur o'zbekistonlik olim Ahmad al-Farg'oniy, ya'ni Alfrazon, uzoq vaqt Misrda yashab, ushbu mamlakatda ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo'shgan. U qurgan "Nil tarozi" (nilometr) asari Nil daryosi darajasini o'lchagan va shuningdek, sug'orish maqsadlarida suvdan samarali foydalanishning asosini yaratgan.

O'zbekiston Misr bilan munosabatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor bermogda, uni arab dunyosining yetakchi davlatlaridan biri sifatida munosib baholab kelmoqda. Misr Arab Respublikasi – O'zbekiston uchun Yaqin Sharq va Afrika qit'asidagi muhim hamkor hisoblanadi. Ushbu mamlakat bilan hamkorlikni mustahkamlash O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda davlatlar o'rtasida siyosiy o'zaro ishonch yuqori darajada saqlanib, savdo-iqtisodiy, investitsiya, ilmiy-texnikaviy hamkorlikni rivojlantirish, madaniy-gumanitar almashinuvlarni faollashtirish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda.

O'rganilganlik darajasi. Misr va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar haqida ko'plab vatandosh olimlarimiz ilmiy maqolalar yozganlar, ammo ko'pchilik hollarda ushbu davlatlar o'rtasidagi hamkorlik xalqaro tashkilotlar, masalan, BMT, SHHT, IHT kabi tashkilotlar doirasida o'rganilgan.

Masalan, D.K. Yusupalieva tomonidan yozilgan "Misr va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlik" asarini ajratib ko'rsatish mumkin. Unda Misr bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiya, transport-kommunikatsiya va madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish masalalari batafsil ko'rib chiqilgan. Misr Arab Respublikasi haqida qisqacha tarixiy ma'lumot berilgan. O'zbekistonning Misr bilan BMT, IHT kabi xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar doirasida o'zaro aloqalari ta'kidlangan. Shuningdek, O'zbekiston o'zining tashqi siyosatida mamlakatning milliy manfaatlariga asoslanib, ochiq, o'zaro foydali va konstruktiv yo'l tutishini qayd etilgan.

M.D. Ergasheva "O'zbekiston - Misr: Ta'lim va turizm sohalaridagi hamkorlik" maqolasida[2] 1990-yillarning boshidan so'nggi 20 yil ichida O'zbekiston Respublikasi va Misr Arab Respublikasi o'rtasidagi ta'lim va turizm sohalaridagi hamkorlik rivojlanish dinamikasini ko'rib chiqadi. Maqolada ikki tomonlama keng ko'lamli ta'lim va turizm loyihalarini amalga oshirishga bo'lgan intilish alohida e'tibor bilan yoritilgan. Hozirda ta'lim va turizm sohalaridagi samarali xalqaro hamkorlik har qanday davlat uchun asosiy





maqsad bo'lib, bu faqat ta'lim sifatini oshirish, professor-o'qituvchilarni ta'lim darajasini rivojlantirish jarayoniga jalb qilishga imkon yaratibgina qolmay, balki iqtisodiyotning rivojlanishiga ham yordam beradi. Mazkur ishlanma, asosan, ta'lim va turizm sohaslaridagi ikki tomonlama hamkorlikni chuqur tahlil qiladi.

Tadqiqot metodlari. Ushbu maqolani yozishda tarixiy-taqqoslash, tarixiy-sistematik metodlar hamda tarixiy davrlarni ajratish metodlari qo'llanilgan.

Tadqiqot natijalari. 1992-yil 26-dekabrda Misr arab davlatlari orasida birinchi bo'lib O'zbekistonning mustaqilligini tan oldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 1992-yil dekabrda Misrga rasmiy tashrifi yangi do'stlik aloqalari va o'zaro hamkorlikni mustahkamlashda muhim qadam bo'ldi.

O'zbekiston Misrning Tashqi ishlar vazirligi huzuridagi Hamkorlikni rivojlantirish agentligi bilan ham muvaffaqiyatli hamkorlik qildi. 1993-yildan boshlab 1200 dan ortiq o'zbekistonlik vakillar Misrda diplomatik xizmat, turizm sohasidagi mutaxassislar, arab tili o'qituvchilari va boshqa sohalarda o'qish uchun kurslardan o'tganlar. Bundan tashqari, Misrning O'zbekiston bilan texnik hamkorlik fondi har yili o'zbekistonlik mutaxassislar uchun turli malaka oshirish kurslarini tashkil etgan [3].

Iqtisodiy hamkorlik o'rtasidagi aloqalar ikki mamlakat o'rtasidagi Hukumatlararo komissiyaning tashkil etilishi bilan jadal rivojlandi. Komissiyaning birinchi yig'ilishi 1996-yil iyun oyida Toshkentda bo'lib o'tdi.

Madaniy-gumanitar sohada O'zbekiston va Misr o'rtasidagi hamkorlik o'zining dinamikligi bilan ajralib turadi. Bu sohadagi hamkorlik 2003-yil 6-noyabrda imzolangan O'zbekiston Respublikasi va Misr Arab Respublikasi o'rtasidagi madaniy hamkorlik to'g'risidagi kelishuvga va 2007-yil 18-aprelda imzolangan ikki mamlakat o'rtasidagi madaniy hamkorlik bo'yicha ijrochi protokoli (2007-2010 yillar uchun) asoslanadi. So'nggi yillarda Toshkentda Misr madaniyati kunlari tantanasini o'tkazish yaxshi an'anaga aylangan.

Ikki tomonlama aloqalarning huquqiy-asosiy bazasi hozirda 56 ta turli hujjatlar bilan tartibga solinadi. Ularning 14 tasi hukumatlararo, 42 tasi esa idoralararo kelishuvlar va memorandumlardir. Misr O'zbekiston uchun Afrika qit'asidagi eng yirik siyosiy va iqtisodiy hamkor bo'lib qolmoqda, O'zbekiston esa Misr uchun Markaziy Osiyodagi asosiy hamkor hisoblanadi.

Toshkentda Misr Arab Respublikasining elchixonasi, Qohirada esa O'zbekiston Respublikasining elchixonasi faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston elchixonasi Afrika mamlakatlari (Janubiy Afrikadan tashqari) va Livan, Suriya hamda Iordaniya kabi mamlakatlar uchun konsullik xizmatlarini ham ko'rsatadi. Hozirgacha O'zbekiston-Misr hukumatlararo komissiyasining savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha oltita yig'ilishi o'tkazilgan [4].

Savdo-iqtisodiy aloqalarning yangi sur'ati 2018-yil sentyabr oyida Misr Arab Respublikasi Prezidenti Abdul-Fattoh as-Sisi tomonidan Toshkentga amalga oshirilgan tarixdagi birinchi rasmiy tashrif bilan boshlangan. Bu tashrif O'zbekiston mustaqillikka





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



erishganidan keyin va 60 yillik tanaffusdan so'ng Misr Prezidenti tomonidan amalga oshirilgan birinchi tashrif bo'ldi. Tashrif davomida ikki tomonlama munosabatlarning turli sohalarini qamrab olgan 12 ta hamkorlik hujjati imzolandi. Erishilgan kelishuvlar xavfsizlik, savdo-iqtisodiy, madaniy, ilmiy va turizm sohalaridagi hamkorlikning jadal rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratdi.

Markaziy iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (MTTIM) ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi besh yil ichida O'zbekiston va Misr o'rtasidagi umumiy tovar ayirboshlash hajmi 3,2 baravarga oshdi – 2017-yilda 10 million dollardan 2022-yilda 30,5 million dollarga yetdi. Shu bilan birga, O'zbekistonning Misrga eksporti 16 baravarga oshdi: 2017-yilda 1,4 million dollardan 2022-yil yakunlariga ko'ra 23,2 million dollarga ko'paydi.

O'zbekistonning Misrga eksport tuzilmasida to'quv mahsulotlari, transport vositalari va xizmatlar mavjud. O'zbekistonning Misrdan importi esa o'z ichiga oziq-ovqat mahsulotlari, kimyoviy mahsulotlar, mashina va transport vositalarini oladi.

Ikki davlat o'rtasida bir nechta yirik istiqbolli iqtisodiy loyihalar amalga oshirilmoqda. Ularning biri – Toshkent viloyatidagi «Bo'stonliq-farm» SEZda Misrning «Solifar» kompaniyasi mablag'lari hisobiga farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish zavodi qurilishi hisoblanadi. Loyihaning umumiy qiymati 20 million dollarni tashkil etadi.

Boshqa yirik loyihalar qatoriga Qashqadaryo viloyatida gepatitga qarshi preparatlar ishlab chiqarish (1,4 million dollar) va Namangan viloyatida Misrning One World Pharma va Kapo Agri kompaniyalari bilan birgalikda baliqchilik xo'jaligini yaratish (1 million dollar) kiradi.

MTTIM tahliliga ko'ra, O'zbekiston va Misr o'rtasida o'zaro savdoni kengaytirish uchun katta foydalanilmagan imkoniyatlar mavjud. O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan, boshqa davlatlarga eksport qilinayotgan ayrim tovarlar Misrda ham yaxshi talabga ega bo'lishi mumkin. Ularga quyidagi tovarlar kiradi: avtomobil ehtiyot qismlari (Misrning importi – 4,9 milliard dollar), tayyor to'quv mahsulotlari, trikotaj matolar va aksessuarlar (665 million dollar), boshqa o'simlik tolalari (28 million dollar), kimyoviy tolalar (793 million dollar), gilam va boshqa to'quv pol matolar (101 million dollar), poyabzal (90 million dollar), keramika mahsulotlari (143 million dollar), zargarlik sanoati mahsulotlari (254 million dollar). Shuningdek, rangli metallar: mis (1,1 milliard dollar), tozalangan mis (752 million dollar), rux (84 million dollar), kimyoviy mahsulotlar (4,1 milliard dollar), maishiy kimyo (220 million dollar) va bo'yoq materiallari (561 million dollar). O'zbekiston uchun Misrga eksportni oshirishda eng istiqbolli yo'nalishlar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, ayniqsa, mevalarni (Misrning importi – 642 million dollar), qalampirni (50 million dollar), yong'oqni (45 million dollar), sesame urug'larini (28 million dollar) yetkazib berish hisoblanadi.

Bugungi kunda turizm - dunyo iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan va dinamik sohalaridan biridir. Misr ham O'zbekistondan keladigan sayyohlar uchun eng talabgir yo'nalishlardan biri hisoblanadi. 2022-yil yakunlariga ko'ra, bu mamlakat sakkizinchi o'rinda turdi. O'tgan yili Misrni 36,8 ming nafar sayyoh ziyorat qilgan.



O'zbekiston Misr bilan BMT, Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT) kabi xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar doirasida hamkorlik qiladi. Paxta sanoati sohasida samarali o'zaro aloqalar o'rnatish uchun bir qator chora-tadbirlar belgilangan. Misr, O'zbekiston singari, o'zining paxtasi bilan mashhur, ayniqsa, uning ingichka tolali navlari jahonda katta talabga ega. Shu yilning o'zida O'zbekistonda 18 ming gektar maydonda bunday paxta navlari ekilishi rejalashtirilgan.

Shu ma'noda, O'zbekiston Prezidenti farmoniga asosan, 2022-yilda Surxondaryo viloyatida ingichka tolali paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etilgan. Misrning paxta seleksiyasi, urug'chilik va agrotexnologiyalar sohasidagi ilmiy-tadqiqot instituti bilan O'zbekistonning ingichka tolali paxtachilik ilmiy-tadqiqot instituti o'rtasida hamkorlik memorandumini imzolangan.

Bugungi kunda ilmiy markazlar o'rtasida genofond almashish, organik paxta tolalarini yetishtirish va suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish bo'yicha amaliy tadqiqotlar o'tkazish, O'zbekistonning ingichka tolali paxta navlarini Misrda sinovdan o'tkazish, urug'chilikda ikki davlatning standartlari va talablarini muvofiqlashtirish ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Bundan tashqari, hayvonchilik va veterinariya sohasida ham yaqin hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha istiqbolli yo'nalishlar mavjud. Misr texnologiyasi asosida O'zbekistonda veterinariya preparatlari va ozuqa qo'shimchalarini ishlab chiqarishni tashkil etish taklifi bildirildi.

1993-yildan 2022-yilgacha Misr Tashqi ishlar vazirligi huzuridagi MDH mamlakatlari bilan texnik hamkorlik fondi (hozirda Misrning Hamkorlikni rivojlantirish agentligi) O'zbekiston mutaxassislari uchun turli yo'nalishlar bo'yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etdi.

Ushbu davrda 1200 dan ortiq o'zbekistonlik mutaxassis diplomatiya, xavfsizlik, biznes, bank ishi, transport, tibbiyot, arab tili bo'yicha malakalarini oshirdi.

Misrning mashhur olimlari Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti huzurida O'zbekiston tarixiga va boy madaniy merosiga bag'ishlangan kitoblarning taqdimotida ishtirok etdilar.

Maxsus taqdimotda ishtirokchilarga arab tiliga Magda Makhoul tomonidan tarjima qilingan «Boburnoma», Ahmad Tarabikning «O'zbekiston: Islom sivilizatsiyasining ildizlari», Ahmad Rajab Muhammad Ali Rizkning «Buxoroning yodgorliklari va islom madaniyati» asarlari taqdim etildi.

2021-yilda Qohirada «Yurakka sayohat» nomli kitobning taqdimoti bo'lib o'tdi, unda 18 nafar yosh o'zbekistonlik shoirlar, yozuvchilar, jurnalistlar va elchixonaning xodimlari ishtirok etdi. Kitobda o'zbek yozuvchilari va shoirlarining asarlari ingliz va arab tillariga tarjima qilingan.

Bu sohada ikki tomonlama hamkorlikda diniy va ta'limiy aloqalar muhim o'rin tutadi. O'zbekiston va Misr islom dinining muqaddas qadriyatlarini targ'ib qilish, uning



insonparvarlik xarakterini saqlash, ikki xalqning diniy va ma'naviy merosini o'rganish bo'yicha hamkorlikni davom ettirmoqda.

Misr, o'z navbatida, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Abu Muin Nasafiy, Mahmud Zamaxshariy kabi buyuk olimlarimizning ilmiy merosini birgalikda o'rganishning ahamiyatini tan oladi.

2018-yilda Misrning «Al-Azhar» dorulfununi bosh imomi Shayx Ahmad al-Tayyib O'zbekistonga tashrif buyurdi. Tashrif davomida uni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qabul qildi.

«Al-Azhar» va O'zbekistondagi bir qator diniy va ilmiy muassasalar o'rtasida hamkorlik hujjatlari imzolandi. 2019-yildan boshlab O'zbekiston Islom akademiyasining «Sharq klassik filologiyasi» fakulteti tarkibida «Al-Azhar arab tili va adabiyoti» kafedrası faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda arab tilida 100 mingdan ortiq tarixiy qo'lyozmalar saqlanmoqda. Ushbu qo'lyozmalar va kitoblarni o'rganish va xalqaro ilmiy ommaga kirishini ta'minlash ikki mamlakat o'rtasidagi kelajakdagi hamkorlik loyihalari uchun muhim vazifaga aylanishi mumkin.

Xulosa. O'zbekiston va Misr turli sohalarida, jumladan, savdo-iqtisodiy aloqalar, korrupsiyaga qarshi kurashish va zamonaviy xavfsizlik tahdidlari bo'yicha tajriba almashish borasida faol hamkorlikni rivojlantirmoqda. Geografik masofaga qaramasdan, ikki mamlakatda ko'plab o'zaro manfaatli sohalar mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yusupalieva D.K. Misr va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlik // Ilmiy muammolar. 2021. №1 (60).
2. Ergasheva, M. D. O'zbekiston - Misr: ta'lim va turizm sohalaridagi hamkorlik / M. D. Ergasheva // Sotsiosfera. – 2023. – № 2. – B. 168-173. – EDN ANEROU.
3. Xalq so'zi gazetasi 27 yanvar 1996 yil.
4. Kamilov A. O'zbekistonning xalqaro maydondagi milliy manfaatlari // O'zbekiston strategiyasi. 2020. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/natsionalnye-interesy-uzbekistana-na-mezhdunarodnoy-arene> (murojaat sanasi: 03.11.2024).
5. O'zbekiston — Misr: hamkorlikning yangi imkoniyatlari // <https://parliament.gov.uz/oz/news/ozbekiston-misr-hamkorlikning-yangi-imkoniyatlari>.
6. O'zbekiston Prezidenti Misr bilan parlamentlararo aloqalarni yanada rivojlantirishni qo'llab-quvvatladi // <https://president.uz/uz/lists/view/7270>.
7. Iskandarova G. Xalqaro aloqalar rivoji ko'plab imkoniyatlar kaliti. – [https://uznel.natlib.uz:444/FN/dl_image/upload/userfiles/files/20_%20%D0%](https://uznel.natlib.uz:444/FN/dl_image/upload/userfiles/files/20_%20%D0%).